

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING KASBGA BO'LGAN
QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI**

Aminova Nodirabegim Hasanjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim

fakulteti 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Ra'no Hamidovna Nosirova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning samarali usullari va interaktiv metodlarni amalda qo'llashning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha tarbiya yoshidagi bola, interaktiv metod, kasbhunar, kasbga yo'naltirish, iste'dod va qobiliyat, reja, proffessionallik.*

**ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕРЕСА К
ПРОФФЕССИИ У ДОШКОЛЬНИКОВ.**

Аннотация: *В данной статье говорится об эффективных методах формирования карьерных интересов дошкольников и важности использования интерактивных методов.*

Ключевые слова: *Ребенок дошкольного возраста, интерактивный метод, профессия, професиональная подготовка, талант, способности, план, проффессионализм.*

**EFFEKTIVE WAYS TO DEVELOP INTEREST IN A PROFESSION
IN PRESCHOOLERS.**

Abstrakt: *In this state, there is talk about effective methods of forming career interests of schoolchildren and the use of interactive methods in practice*

Keywords: *Preschool age child, interactive method, profession, professional preparation, talent and ability, plan, professionalism*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasini har tomonlama rivojlangan davlatlar qatoridan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o‘rin egallashini ta’minlash, kelajak avlodning komil inson bo‘lib voyaga yetishiga bevosita bog‘liqdir. Yurtimizda mактабгача yoshdagi bolalarning bilimli, intellektual, axloqiy, estetik, qobiliyatli va jismoniy rivojlanishi uchun barcha yetarli shart-sharoitlarni yaratish, mактабгача ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, faol pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish, bu O‘zbekiston Respublikasi mактабгача ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PQ-4312da belgilab berildi.

Konsepsiada mактабгача ta’lim tizimini tubdan rivojlantirishning reja, maqsadlari va ilg‘or pedagogik yo‘nalishlarda, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bolalarning rivojlanganlik darajasi va ularning umumiy kasbiy ta’limga tayyorgarligi, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy o‘sishini baholash asnosida amaliyotga joriy etilishi ta’kidlandi.

Bundan tashqari konsepsiya bolalarni har tomonlama intellektual shaxs qilib tarbiyalash va ularni mактабгача ta’lim tashkilotlarida kasblar bilan tanishtirib borish, bolani o‘z navbatida kelajak hayotga jasorat bilan kirishi o‘z kasbiy faoliyat turini tanlashi uchun tayyorlash kabi pedagogik amaliyotni nazarda tutadi.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga, bolalarni har jahada bilim salohiyati yetuk holda tarbiyalash, ma’naviy-axloqiy va jismoniy o‘sishni ta’minlaydigan zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, ilg‘or ijtimoiy axborot va pedagogika texnologiyalarini amalda qo’llash, bolalarni maktabga tayyorlash darajasini oshirish, mактабгача ta’limni boshqarishning zamonaviy intellektual standartlarini ishlab chiqish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 487-sonli qarori qabul qilindi hamda “Mактабгача ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunda har bir bolaning mukammal ta’lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi, har bir bolaning qobiliyat nishonlarini, ishtiyoqlari va iste’dodlarini shakllantirish uchun shart-sharoit yetarli bo‘lishi ta’kidlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish, ta’lim-tarbiya yo‘nalishining jihatlaridan biri mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish maqsadiga erishishga qaratilgan. Leontyevning so‘zlariga ko‘ra, mактабгача katta yoshdagi bolalarda boshqa

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

odamning faoliyatini baholash, o‘zini boshqa insonlarning hayot faoliyati bilan solishtirish qobiliyati paydo bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalarda kattalar dunyosiga va ularning turli-tuman faoliyatiga bevosita qiziqish mavjud.

T.A.Markova va V.G.Nechayevalar ekskursiyaga kata ahamiyat bergenlar. Ular ekskursiyani maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblar haqidagi g‘oyalarini shakllantirishning eng samarali usuli deb hisoblashgan.

E.A.Klimov ishlab chiqqan kasblar tuzilmasi ham keng tarqalgan. Mehnat tuzilmasiga ko‘ra 5ta kasb turlari ajratiladi.

1. Inson-tabiat (T). Bu tur ixlosmandlari hayvonot olami, o‘simlik olami, mikroorganizmlar va ularning hayot tarzi, hayot muhiti bilan ishlashadi. Xususan: meva va sabzovot mutaxassisini mikrobiolog, veterenar, zoolog, agronom.

2. Inson-texnika (T). Bu tur faoliyat bilan shug‘ullanadigan ishchilar jonsiz texnik obyektlar bilan ishlashadi. Masalan: texnik, mexanik, muhandis mexanik,muhandis elektrik, texnik texnolog va hokazo.

3.Inson-inson (I). Buda jamiyat tizimlari, madaniy-ma’naviy va axloqiy guruhlar, turli tipdagи insonlar bilan faoliyat yuritish nazarda tutiladi. Masalan: turli tuman mahsulotlar sotuvchisi, sartarosh, insonlarni davolaydigan shifokorlar, pedagog va boshqalar.

4. Inson-belgilar tizim. Tabiiy va sun‘iy tillar, ramzlar, shartli belgilar, formulalar, raqamlar kasb turi egalarini qiziqtiruvchi predmetlar olami va boshqalar. Masalan: nashriyot muharriri, tilshunos, matematik, chizmachi-kartagraf, dasturchi.

5. Inson-badiiy obraz (B). Hodisalarni badiiy ifoda etilishi-mana shu narsalar bu kasb egalarini qiziqtiradi. Masalan: aktyor, konsert ijrochisi, balet artisti, musiqa asboblarini sozlovchi, rassom-restavrator, rassom dekarator va boshqalar.

Hozirgi paytda, Harrison Assesments usuli bo‘yicha kasbga yo‘naltirish O‘zbekistondagi birinchi va noyob kasbga yo‘naltirish usuli bo‘lib, u sizga farzandingiz uchun qaysi mutaxassislikni tanlashni va qaysi kuchli tomonlarini rivojlantirishni aniqlashga yordam beradi:

Bu test usuli orqali siz:

-farzandingizni kuchli tomonlarini tahlil qila olasiz;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- siz uchun muvaffaqiyatli bo‘ladigan kasblar ro‘yxatini bila olasiz;
 - farzandingizni yetakchilik fazilatlarini tahlil qila olasiz;
 - farzandingiz hayoti uchun oldindan puxta o‘ylangan reja tuza olasiz;
 - farzandingiz umrini behuda sarflanadigan vaqt va mablag‘lardan saqlab qolasiz;
- farzandingiz hayoti uchun psixolog mutaxassislar bilan istiqbolli rejalar tuza olasiz;

Asosiy qism Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama yetuk shaxs qilib rivojlantirish va ularni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kasblarning yetakchi faoliyati bilan tanishtirib borish bolalarni o‘z vaqtida katta hayotga jasorat bilan kirishi o‘z kasbiy faoliyat turini tanlashi uchun tayyorlashni nazarda tutadi.Ushbu biz tomonimizdan tavsiya qilinadigan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni kasbga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishning samarali usullarini katta yosh guruhlarda kasbga yo‘naltirish uchun yaratilgan zamonaviy interaktiv metod sifatida ko‘rib chiqamiz.

1. **Amaliy tajribalar:** maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni ish joylarga tashrif buyurishlarini tashkillashtirish orqali bolalarda kasbga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish, ya’ni bu yerda soha mutaxassislarining kundalik vazifalari va tajribalari bilan o‘rtoqlashish imkonini beradi. Amaliyot sifatida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni psixologik ta’sir ko‘rsatish uchun yozgi yoki yarim kunlik amaliyotlarga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari kasbga yo‘naltirilgan ixtisoslashtirilgan mashg‘ulot yoki seminarlar tashkil etish bolalarga kasb faoliyati ko‘nikmalarini o‘rganish va sohani o‘zlashtirish imkonini beradi.

2. **Illiomlantiruvchi rol modellari** (rol o‘ynash) bolalar uchun turli xil kasbga oid professional, o‘ynashi mumkin bo‘lgan rollarni, ssenariylarni yaratish bu bolada tasavvur va tushunchalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar uchun kasbhunarga oid loyihalarni tayyorlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlikni rag‘batlantiradi. Kasb faoliyati tushunchasini yanada kengaytirish uchun guruhlarda ta’lim o‘yinlari va boshqotirmalarni o‘z ichiga olgan tadbirdardan foydalanish (mentorlik dasturlari) Bolalarni ustoz sifatida faoliyat yuritadigan va kasbga doir yo‘l-

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yo‘riq ko‘rsatadigan soha vakillari bilan bog‘lash, ilhomlantiruvchi manba bo‘lib xizmat qiladi. Yoki shoir, yozuvchilik sohasiga hissa qo‘shgan shaxslarning asar, hikoyalari bilan tanishtirish. Kasb-hunarga oid tasavvurlarni yanada boyitish uchun ish joylari va tadqiqot muassasalari bo‘ylab akt vositalari yordamida virtual sayohatlarni tashkillashtirish. Bu va bu kabi rol modellarini biz mtlarda sahnalashtirish markazlarida tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda olib borsak maqsadga muvofiq bo’ladi

3. **Ta’lim manbalari:** (kitoblar va jurnallar) bolalarning kundalik faoliyati ro‘yxatiga kasbga doir kitoblar va jurnallarni o‘qishlarini rag‘batlantirish. Soha mutaxassislarining ishini yorituvchi hujjatli filmlar va videolarni tomosha qilish. Jumladan til va nutq markazlarida bolalarni kasbga doir kitob jurnallar bilan tanishtirish

4. **Faoliyat va resurslarni bolalarni qiziqishlari va o‘rganishlariga moslashtirish.** Ochiq savollar berish va muhokamani rag‘batlantirish orqali qiziqishni rivojlantirish. Kasblarni jamiyatga qanday hissa qo‘sishini va ijobiy o‘zgarishlar qilishini tushuntirish. Bolaning kasbni o‘rganishdagi harakatlari va yutuqlarini tan olish va qo‘llab-quvvatlash.

Muhokama

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni erta kasbga yo‘naltirishning asosiy maqsadi bolaning kasbiy munosabatga bo‘lgan hissiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, turli faoliyat va kasblarda o‘zining professional qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini berishdir. Bunday ta’lim-tarbiyaga ega bola, avvalo, mehnat mahoratini rivojlantiradi, turli kasb egalariga nisbatan ularning mehnatiga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi. Ikkinchidan, bolaning dunyo qarashlari shakllanib borayotgan bir vaqtida uning muayyan kasbga qiziqish moyilligi erta namoyon bo‘lishiga yordam beradi. Binobarin, bolalarni kasblar bilan tanishtirish vazifasi bolani o‘z vaqtida mustaqil hayotga o‘ziga ishonch bilan kirishi va o‘z kasbiy faoliyat yo‘lini tanlashi uchun tayyorlashni nazarda tutadi. Bizning asosiy maqsad-bolaning o‘z kasbiy rivojlanish yo‘lini mustaqil ravishda rejalashtirish, tushunish va amalga oshirishga tayyorligini bosqichma-bosqish shakllantirish.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni kasbga yo'naltirishning samarali usullari orqali biz kasbiy o'zini o'zi aniqlashga yordam berishga qaratilgan tadbirlar tizimi yarata olamiz. Kasbga yo'naltirishning maqsadi-bolaning ma'lum bir kasbiy faoliyat yo'nalishiga moyilligini aniqlashdir. Ushbu amaliyot har bir maktabgacha tarbiya yoshidagi bola is'tedodli va ma'lum bir sohada qobiliyatini tadbiq eta oladi degan fikrga asoslanadi. Kasbga yo'naltirishning turli (samarali) usullari mavjud xususan: kelajakdagi kasbni tanlashda duch keldigan bola bilan, uning qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlarini muhokama qiladigan mutaxassislar bilan davra suhbatlari, yoki standartlashtirilgan anketa so'rovnomalar mavjud. Bunday usullar bolalarni qaysi tomonlama kuchli va qaysi tomonlama zaif ekanligini aniqlashga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samarali interaktiv metodlarni qo'llash bizga maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni kasbga yo'naltirish bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi. Xususan: kattalar va bolalar o'rtasida erkin muloqotni shakllantirish, bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish, bolalar o'z fikr mulohazalari, his tuyg'ulari va xohishlarini erkin ifoda eta olish, bilim va ko'nikmalariga asoslanib o'z qarorlarini qabul qila olish xususiyatlarga ega bo'ladilar.

Shunday qilib, interaktiv pedagogik texnologiyadan mohirona foydalanish bolalar bilimini oshirishda yuqori samaradorlik beradi. Bolani yetuk shaxs sifatida tarbiyalash esa, zamonaviy-innovatsion pedagogik texnologiyalarga professionallik bilan yondasha oladigan, ularni o'z ishi amaliyotida qo'llay oladigan tarbiyachigina erisha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi
2. Takomillashtirilgan ilk qadam o'quv dasturi 2022
3. Maktabgacha yoshidagi bolalarga interfaol metodlarni qo'llash usuli. Turdiyeva Izzatoy Sadikovna

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning dasturiy ta'minotini maktabgacha ta'lim tashkilotlariga joriy etish mexanizmlar N.N.Djamilova
5. Abdullayevna, G. G., & Kamaldinovna, B. M. (2022). WAYS OF FORMATION OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS.
6. Гайназарова, Г.А. (2020). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ПЕДАГОГ-ТАРБИЯЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ОШИРИШ ДОЛЗАРБ МУАММО СИФАТИДА. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI-2№ 3).